



## Classification of phraseological units with the component “eye” and their semantic features (on the example of S. Ayni’s story “Old school”)

Jamshed MIRZOEV<sup>1</sup>

Samarkand State Institute of Foreign Languages

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 February 2024

**Keywords:**

phraseological units,  
phrase,  
idiom,  
semantic equivalents,  
somatic phraseologisms,  
phraseological dictionary,  
eye.

### ABSTRACT

In this article, the classification and semantic features of phraseological units are analyzed, which are considered one of the interesting parts of linguistics, in particular, somatic phraseology with the component “eye”. As an object, phraseological units with the component “eye” used in the story “Old school” by S. Ayni are analyzed with several examples. Moreover, phraseological units were studied dividing into groups according to their semantic characteristics.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp6-12>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## “Ko‘z” komponentli frazeologik birliklarning tasnifi va ularning semantik xususiyatlari (S. Ayniyning “Eski maktab” povesti misolida)

### ANNOTATSIYA

**Kalit so‘zlar:**

frazeologik birliklar,  
ibora,  
idioma,  
semantik ekvivalentlar,  
somatik komponentli  
frazeologizmlar,  
frazeologik lug‘at,  
ko‘z.

Ushbu maqolada tilshunoslikda qiziqarli sohalardan biri hisoblangan frazeologik birliklar, xususan “ko‘z” komponenti ishtirok etgan somatik frazeologizmlarning tasnifi va semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Ob‘yekt sifatida S. Ayniyning “Eski maktab” povestida qo‘llanilgan “ko‘z” komponentli frazeologizmlarning tahlili bir qancha misollar bilan berilgan. Shuningdek, frazeologik birliklar semantik xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratib o‘rganilgan.

<sup>1</sup> Lecturer, Department of Language and Translation, Samarkand State Institute of Foreign Languages

# Классификация фразеологизмов с компонентом «Глаза» и их семантические свойства (на примере повести С. Айни «Старая школа»)

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

фразеологизмы,  
словосочетание,  
идиома,  
семантические  
эквиваленты,  
соматические  
фразеологизмы,  
фразеологический  
словарь,  
глаза.

В данной статье рассматриваются классификация и семантические свойства фразеологизмов, представляющих собой одно из интересных направлений в языкознании, особенно в сфере соматической фразеологии с компонентом «глаза». На примере нескольких фразеологизмов с компонентом «глаза», использованных в рассказе С. Айни «Старая школа», проведен анализ. Фразеологизмы были классифицированы по их смысловым характеристикам и разделены на группы.

Frazeologizmlar – barqaror birliklar bo‘lib, ular nutqqa ko‘chganda yorqinlik, aniqlik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Nutqda frazeologik birliklardan (FB) foydalanish tilni boyitadi, uni rang-barang va jozibador bo‘lishiga xizmat qiladi. Frazeologiya har qanday tilning eng boy xazinasi hisoblanadi. Shu bilan birga, FB nafaqat ifoda vositasi, balki ma’lum bir xalq uchun ahamiyatga molik bo‘lgan ma’nolarni aks ettiruvchi milliy madaniyat ko‘zgidir. A.V. Kunin ta’kidlaganidek, “Frazeologiya – bu tilning xazinasidir. Frazeologizmlar xalqning tarixini, madaniyati va turmush tarzining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Frazeologizmlar odatda yorqin milliy xarakterga ega bo‘ladilar.”

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: masalan, *ko‘nglida kiri yo‘q, ichi qora, ammamning buzog‘i, tosh bag‘ir, ko‘kka ko‘tarmoq, og‘ziga urmoq, ko‘zini shira bosdi, ko‘z tegdi, ko‘z o‘tmaydi, to‘rt tomoni qibla, daryodan tomchi, ko‘ngil bermoq va boshqalar.*

Tojik, o‘zbek, rus va ingliz tillari FBga boy bo‘lib, ularning umumiy va farqlovchi xususiyatlari mavjud. Frazeologiya – tilshunoslikning mustaqil qismi sifatida nafaqat tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki shu tilda so‘zlovchilarning dunyoqarashi, turmush tarzi, his-tuyg‘ulari, orzu-havaslarini, mayl va odob-axloqlarini namoyon etishga qodir. Frazeologik birliklar turli xalq vakillarining til boyligi hisoblanib, millatning turmush sharoiti, inson ichki kechinmalari va tushunchalarini o‘zida aks etadi. Masalan, birgina “ko‘z” (чашм, глаза, eye) komponenti ishtirok etgan yuzdan ortiq FB nutqda faol qo‘llanib kelinmoqda. Ularni grammatik-semantik jihatidan turli guruhlariga klassifikatsiyalash mumkin. Masalan, his-tuyg‘uni ifodalovchi FB, *чашми касе равшан шудан, ko‘zi qinidan chiqib ketdi, глаза горят, to feast one’s eye on;* aldov, yolg‘onni ifodalovchi FB, *ба чашми касе хок пошудан, ko‘ziga cho‘p solmoq, пускать пыль в*

*глаза, to blear somebody's eyes; tajriba, ko'nikma ma'nolarini anglatuvchi FB, чашми кесе ба чизе пухта шудан, чашми корро омӯхтан, ko'zi pishdi, to have an eye for smth, (to get experience, to have a good hand in smth.); birovni yoqtirmaslik ma'nolarini ifodalovchi FB, бо чашми бад нигоҳ кардан, чашми дидан надоштан, ko'rgani ko'zim yo'q, бросить злой, злобный взгляд, to cast an evil eye; his-hayajon ma'nosida, чашми худро калон кушодан, ko'zi katta-katta bo'lib ketdi, широко открыть глаза от удивления, to open one's eye.*

Keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, "ko'z" komponentli FB soni va ularning semantik xilma-xilligi ushbu tushunchaning nafaqat tilda, balki umuminsoniy madaniyatda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini taqozo etadi.

Ko'z – insonning eng muhim organlaridan biri bo'lib, u bilan nafaqat atrof muhitni ko'rish va idrok etish, balki insonning ichki holatini, his-tuyg'ularini, fikr mulohazalarini ifoda etib, hattoki boshqalarga ta'sir qilish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ko'zlarimiz jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni ta'minlaydigan turli xatti harakatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'zlar insonning ichki dunyosi bilan atrof muhit o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Odatda ular insonning ruhiy va jismoniy holatini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini, fikrlarini tushunishga imkon beradi. Natijada "ko'z" boshqalarga ta'sir qilish vositasi ham bo'lishi mumkin. "ko'z" komponenti ishtirok etgan FB larni uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin: insonning jismoniy holatini tasvirlovchi FB; insonning his-tuyg'ularini, ichki dunyosini ifodalovchi FB; kimgadir yoki nimagadir munosabatlarni bildiruvchi FB.

**1. Insonning jismoniy holatini tasvirlovchi FB;** *аз чашм мондан (ko'z xira, ko'r bo'lmoq), ба чашм об гурифтан (yig'lamoq), аз дунё чашм нӯшидан (vafot etmoq), ба олам чашм кушодан (tug'ilmoq), ko'zi yoridi (tug'moq), ko'zi ochiq (barhayot), ko'zi ilindi (uyquga ketmoq), dunyodan ko'z yummoq (vafot etmoq), глаза слпаются (charchoqdan uyquga ketmoq), не смыкать глаз (hushyor turmoq), с пьяных глаз (mast holatda), cry your eyes out (qattiq yig'lamoq), eyes out on stalks (hayratdan ko'zlarni katta ochish), be all eyes (katta qiziqish bilan kuzatish).* Boshqacha qilib aytganda, "ko'z" komponentli FB lar insonning uyqu, uyg'onish, charchoq, yig'lash, tug'ilish, o'lim, hushyorlik, qiziqish kabi jismoniy holatlarini aks ettiradi.

**2. Insonning his-tuyg'ularini, ichki dunyosini ifodalovchi FB;** ehtimol, "ko'z" komponentli frazeologik birliklarning ushbu guruhi keng va xilma-xildir. Inson baxt, qayg'u, qo'rquv, g'azab, ajablanish, jirkanish, hasad, sevgi va boshqa ichki dunyosi holatlarini "ko'z" orqali ifodalash mumkin. Masalan, *чашми кесе равшан шудан (xursand bo'lmoq), чашми худро калон кушода мондан (ajablanmoq), бо чашми худ касеро хӯрдан (hasad bilan qaramoq), ko'zi tor (qizg'anchiq), ko'zi o'ynadi (havasi kelmoq), ko'zlari qinidan chiqib ketdi (g'azablanmoq), хлопать глазами (dovdirab qolmoq), глаза на мокром месте (qayg'u), глаза отдыхают (mamnun bo'lmoq), не знать куда девать глаза (xijolat bo'lmoq), can't believe your eyes (lolu hayron qoldirmoq), have stars in your eyes (orzu havas qilmoq), open-eyed (hayratlanmoq), a twinkle in your eyes (quvnoq).*

**3. Kimgadir yoki nimagadir munosabat bildiruvchi FB;** *чашми кесе шудан (nazorat qilish ma'nosida), аз чашми бад нигоҳ дорад (duo), чашми дидан надоштан (birovni yoqtirmaslik), ko'ziga issiq ko'rinmoq (tanishdek tuyilmoq), ko'zi ko'r, qulog'i kar (bexabar), закрывать глаза на (ataylab e'tiborsiz qoldirmoq), смотреть в глаза (qat'iyatli, ishonch bilan), для (ради) прекрасных глаз (birovning manfaati uchun), to suffer from the effect of the evil eye (ko'z tegdi), to open somebody's eyes to something (ko'zini ochmoq).*

Shunday qilib, o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, "ko'z" komponenti ishtirok etgan FB larning soni anchagina bo'lib ular turli xil ma'nolarga ega. Bu esa ko'zlar hayotimizda qanchalik ahamiyatli va serma'no ekanligini namoyon etadi. Mashhur rus yozuvchisi L.N. Tolstoy aytganidek, "Глаза – зеркало души" (Ko'zlar – qalbning ko'zgidir). Darhaqiqat, bu ibora orqali insonning fe'l-atvori, ruhiy holatini, har qanday xatti-harakatlarini uning ko'zlariga qarab xulosa qilish mumkin. Ko'pincha bir-birimiz bilan uchrashganda, qalbning bu kichik ko'zgidiga qarab insonning fikr mulohazalarini o'qishga harakat qilamiz. Ijodkorlar o'z asarlarida qahramonlarning his-tuyg'ularini ifodalash, ularning ichki dunyosini aks ettirish, jismoniy holatlarini tasvirlash uchun FBdan foydalanganlar. Masalan, mashhur shoir, davlat va jamoat arbobi, tojik va o'zbek tillarida ijod qilgan yozuvchi Sadriddin Ayniy asarlarida qahramonlar nutqidagi milliylikni ta'minlash maqsadida juda ko'p FBlardan foydalangan. Ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning "Eski maktab" povestida qo'llanilgan "ko'z" komponenti ishtirok etgan FB larni tojik, o'zbek, rus va ingliz tillarida qiyosiy tasnifi tahlilga tortilgan. "Eski maktab" povesti olti qismdan iborat bo'lib, ilk bor 26-oktabr 1934-yilda nashr qilingan. Povestda S. Ayniy o'zining boshlang'ich ta'limi haqida hikoya qilib bergan. Maktabda eski o'qitish tizimi, domlarning saboq berishlari, talabalarning bilim va ko'nikmalari, eskicha o'qitish metodlari, zamonaning o'quv qurollaridan foydalanish, ayanchli bolalik yillari, to'polonchi o'quvchilarni jazolash usullari va hattoki o'g'il bolalar va qiz bolalar maktablarida o'qitish tizimlari haqida ham atroflicha yoritib berilgan. Qissa sodda va ravon tilda kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, u juda sodda va tushunarli tilda yozilgan. Yozuvchi povestda til birliklarini shu darajada o'z o'rnida topib ishlatganki, biror iborani boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Birgina "ko'z" komponentli FB lardan ham keng foydalanilganligini quyidagi misollarda guvohi bo'lishimiz mumkin.

### 1. Qo'rquv (kuzatish) – ta'kid ma'nosida.

*Аммо чашми худро аз он чўбҳо, хусусан, аз он чўби дароз, ки ба сар то сари мактаб мерасид ва ба ҳеҷ бача, гарчанд дар гўшаи дури мактаб хазида бошад ҳам, амон намедод, намякандам...* (Мактаби кўҳна, с. 8).

*... shunday bo'lsa ham, **ikki ko'zimni** tayoqlardan, ayniqsa, maktabning har tomoniga yetib, hatto uzoq burchaklardagi omon bermaydigan boyagi uzun tayoqdan sira **uzmas edim...*** (Eski maktab, b. 6).

*...но все **не отводил глаз** от его палок, а особенно от той, которая доставала до самого дальнего угла, от которой никуда нельзя было укрыться* (Старая школа, с.8).

*I did not **take my eyes off** his sticks, and especially from the one that reached the farthest corner, from which it was impossible to hide* (Old school, p. 9).

### 2. Itoat, tikilib qarash – mazmunida.

*Пас гашта даромада, рӯ ба рӯи мактабдор ба ӯ **чаши дўхта** истодам* (Мактаби кўҳна, с. 23).

*Yo'limdan qaytib, domlarning ro'parasida, unga **ko'zimni tikkan** holda to'xtadim* (Eski maktab, b. 19).

*Вернувшись, я встал перед ним* (Старая школа, с. 23).

*Returning, I stood in front of him* (Old school, p. 23).



### 3. Kuzatish (qo'rquv) – ma'nosida.

Танҳо ман, будам, ки дар берунтари маърака истода **як чашмамро ба бозӣ дӯхта** бошам ҳам, **чаши дигарамро аз дар наменкамдам** (Мактаби кӯҳна, с. 37).

*Yolg'iz mengina o'yin to'polondan chetroqda turib, bir ko'zimni o'yinning borishiga tikkanim holda ikkinchi ko'zimni maktabxona eshigidan uzmagani edim, ... (Eski maktab, b. 32).*

Лишь я, стоявший поодаль от поля битвы, хотя и **смотрел одним глазом на птиц**, все же не **отрывал глаз от двери** (Старая школа, с. 37). *Meanwhile, I who stood at a distance from the battlefield, sneaking a peek at the birds but never took my eyes off the door (Old school, p. 33).*

### 4. Qo'rqitish – mazmunida.

Ҳарчанд аз тарси чӯби мактабдор сари худро боло накунад ҳам, ба ман нигоҳ карда ва **ангуштҳояшонро пеши чашиҳояшон оварда**, маро ба якдигар нишон меоданд (Мактаби кӯҳна, с. 10).

*Bolalar ham menga qarar va domla tayog'idan qo'rqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib bir-birovlariga meni ko'rsatar edilar ... (Eski maktab, b. 7).*

Не поднимая голов, опасаясь учительской палки, они указывали на меня друг другу пальцами, **проставленными к правому глазу** (Старая школа, с. 10).

*Without raising their heads, fearing the teacher's stick, they pointed at me with their fingers pressed to their right eye (Old school, p. 9).*

### 5. Diqqat, yashirincha kuzatish – ma'nosida.

Ман тарсида хостам, ки аз мактаб баромада гурезам, аммо муяссар нашуд: дари мактабро аз дарун занҷир карда, ба зулфинаш чӯб гузаронида буданд, даромад-баромад кардани мисли ман бачаи шашсола мумкин набуд ва бо “ба қоят нишин, вагарна мезанам”, гуфтани халифа баргашта ба қоям нишастам ва сари худро ҳам карда, **зери чаши** ба халифа **нигоҳ мекардам** (Мактаби кӯҳна, с. 11).

*Men qo'rqib maktabxonadan chiqib ketmoqchi bo'ldim, lekin bu muyassar bo'lmadi. Chunki maktab eshigini ichkaridan zanjirlab, zulfiniga cho'p tiqqanlar: kirish-chiqish yo'li butunlay berkitilgan ekan, men ham endigina olti yoshda bo'lganimdan eshikni ochishga bo'yim, kuchim ham yetmas edi (Eski maktab, b. 8).*

Дверь была заперта изнутри на цепь и в щеколду вде́та палка, так что шестилетним малышам, подобным мне, нельзя было ни войти, ни выйти. После слов халифы: «Сядь на место, а то побью!» – я вернулся, сел на своё место и, **украдкой смотрел** на халифу (Старая школа, с. 15).

*The door was locked from the insidewith a chain and a stick was inserted into the latch so that six-year-old kids like me could neither enter no exit. After the words of the Caliph saying “sit down or I'll beat you!” – returned, sat down in my seat, bowing my head, looked at the Caliph **out of the tail of my eye**(Old school, p. 11).*

### 6. Tikilib, sezdirmay qarash – mazmunida.

Ман ҳам ба онҳо тақлид карда, ба тахтачаи худ сарамро хамонида ва **гӯшаи чаширо** ба мактабдор **дӯхта** “алиф, бе, те, се” гӯён дод мегуфтам (Мактаби кӯҳна, с. 11).

*Men ham ularga taqlid qilib ko'zlarimni taxtachamga tikib “alif, be, te, se”, deb qichqirmoqda edim (Eski maktab, b. 11).*

*I, too, imitating them, **stared** at my board, and yelled:*

*Alif, baa, taa, thaa! (Old school, p. 14).*

### 7. Yashirincha, sezdirmay qarash – mazmunida.

Ман ҳам ба ҷои худ рафта, “ҷим, ҳе, ҳе” гӯён ба такрор даромадам. Лекин ҳоло ҳам **чашмамро** аз афту андоми мактабдор, хусусан аз риши бузвори он **намекамдам** (Мактаби кӯҳна, с. 28).

Men o'z joyimga borib o'tirib "jim, he, he"ni takrorlashga kirishdim, lekin hali ham **ko'zimni** domlaning yuzidan, ayniqsa, uning echki soqolidan **uzmas edim** (Eski maktab, b. 24).

Я вернулся на своё место и принялся повторять “джим, хе, хэ”, все еще **не отрывая глаз** от учителя и особенно от его козлиной бородки (Старая школа, с. 28).

I returned to my seat and began to repeat “jeem, haa, khaa” still **not taking my eyes off the teacher and especially from his goatee** (Old school, p. 27).

### 8. Donishmandlik, donolik – ma'nosida.

Ў кӯрсаводи кӯр аст, ман аз кӯр **чашми бино** мехоҳам. Ман аҳмақам (Мактаби кӯҳна, с. 43).

U-ku savodsiz, ko'r bir odam edi, men ko'rdan **ko'rar ko'z talab qilibman**. To'g'ridan ham o'zim ahmoq ekanman (Eski maktab, b. 38).

Он – полуграмотный слепец, а я-то требовал от слепца **зрячих глаз**. Я дурак (Старая школа, с. 43).

He is a half-literate blind man, I demanded **seeing eyes** from a blind man. I'm a fool (Old school, p. 37).

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, S. Ayniyning “Eski maktab” povestida ishlatilgan “ko'z” komponentli FB soni ko'p va ularning barchasi turli xil ma'nolarga ega. Bu esa, “ko'zlar” FBlar tarkibida ishtirok etib ko'plab barqaror birliklar hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi va shoirlar o'z qahramonlarining jismoniy holatini, his-tuyg'ularini, ularning ichki dunyosini tasvirlashda “ko'z” komponentidan juda mohirona foydalanganlar. Insonning xarakteri, uning aqliy fazilatlarini, undan kutilgan xatti-harakatlarning inson ko'zlarining tabiiy ifodaligiga qarab ham anglash mumkin. Ko'pincha bir-birimiz bilan uchrashganimizda, insonning ko'zlariga, qalbning bu kichik ko'zqusuga qarab, uning fikrlarini o'qishga harakat qilamiz.

Ikkinchidan esa, har qanday tilning frazeologiyasida shu tilda so'zlovchilarning o'ziga xos til xususiyatlari mujassam bo'ladi. Shuning uchun tillarning frazeologik zaxirasini taqqoslash, xalqlarning tili, dini, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi va milliy-madaniy tushunchalarini ochib berishga imkon beradi. Shunday qilib, tarjima jarayonida frazeologizmlarning gapda vazifasini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Masalan, stilistik vazifa bajarayotgan FB-larni kalka orqali emas, balki mos ekvivalentlarini izohli lug'atlardan topish maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu o'rinda har doim kontekstning ahamiyatini ham yodda tutish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айнӣ С. Мактаби кӯҳна. – Повест. Душанбе, 2010, ТҶБ «Истиқбол», 56 с.
2. Айнӣ С. Эски мактаб. Повесть. – Т.: «Ёш гвардия», 1982. – 48 б.
3. Ayni S. Old school. Story. Translated and edited by John Smith. November 19, 2020, 58 p.
4. Айна Садриддин. «Старая школа». Повесть, Душанбе, 2010, НПО «Истиқбол», 56 стр.

5. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди якум. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – 971 с.
6. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти «ИРФОН», Душанбе, 1964 – 807 с.
7. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, "Tarjima nazariyasi", o'quv qo'llanma, T. 2012. 157 b.
8. Ibayev A.J. Komparativ sintaktik qurilmalar tilshunoslikning o'rganish ob'yekti sifatida// "So'z san'ati" xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. –№1. –B. 97-102. (10.00.00.№31)
9. MIRZOYEV, J. HOFIZ SHEROZIY G'AZALIDAGI NOZIK JIHATLARINING TARJIMADA BERILISHI.(FORS-INGLIZ TILLARI MISOLIDA). УЧЕНЬИ ХХИ БЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 83-85.
10. Norkulovich, M. J. (2023). SADRIDDIN AYNIYNING "ESKI MAKTAB" POVESTIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI (TOJIK, O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(7), 37-41.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, "Ўқитувчи" нашриёти, 1978, – 407 б.
12. Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: "Ўқитувчи" нашриёти, 1983, – 232 б.
13. Шодиев С. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари // Ўзбекистон хорижий тиллар (электрон илмий-методик журнал). – Тошкент, 2017. - №2,16. –Б.246-250. (10.00.00. №17).